SAMARQAND VILOYATI QO‘SHRABOT TUMAN HOKIMINING
QARORI

Qoʻshrabot sh., Gʻafur Gʻulom koʻchasi, 3-uy

2024 - yil 4 - yanvar 2-7-97-Q/24 Qo‘shrabot tuman hokimligi

Tuman hududidagi barcha yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 125-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomi ijrosini ta‘minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasiga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Tuman hududidagi mulkchilik shaklidan qat’iy nazar yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalari majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin.

2. Tumanda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha “Komissiya”ning tarkibi 1-ilovaga, majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali
2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Transport vositalari quyidagi davriylikka muvofiq texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin:

tijorat asosida yo‘lovchilar tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yengil avtomobillar, avtobuslar, trolleybuslar, tramvaylar hamda o‘rindiqlar soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari, ularning tirkamalari - bir yilda

ikki marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ko‘p bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) - ikki yilda bir marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq bo‘lgan, shuningdek, ishlab chiqarilgan vaqti aniq bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning “a” kichik bandida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) - bir yilda bir marta;

tirkamalar texnik ko‘rikka - shatakchi uchun belgilangan muddatlarda.

Navbatdagi texnik ko‘rikdan o‘tkazishning ilgari o‘tkazilgan muddatidan qat’iy nazar, ularni Davlat yo‘l haritasi xavfsizli hizmati (keyingi o‘rinlarda - DYNXX) organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish (qayta ro‘yxatdan o‘tkazish) vaqtida (birinchi marta ro‘yxatga olinayotgan transport vositalari bundan mustasno).

4. Nizomning 3-bandi ikkinchi xatboshida ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

birinchi marotaba 1-martdan 30-iyungacha;

ikkinchi marotaba 1-sentabrdan 31-oktabrgacha;

jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarining texnik ko‘rigi 1-yanvardan 31-dekabrgacha o‘tkazilsin.

5. Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tuman komissiyasi rahbariga trasport vositalarining texnik ko‘rikdan o‘tkazishda:

Transport vositasini ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi, guvohnomada (texnik pasportda, texnik talonda) ko‘rsatilgan ma’lumotlarga transport vositasi turi, markasi, modeli, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish raqami belgilari, shassi (rama), kuzov va dvigatelning identifikatsiyalash raqamlarining muvofiqligi;

transport vositalarining texnik holati, jihozlari texnik reglomentlari, standartlar talablariga, yo‘l harakati havfsizlagi qoidalari va normalariga muvofiqligi;

maxsus teskor xizmatlarning transport vositalarida maxsus rangli va ovozli singnallar qurilmalarininig mavjudliligi, sozligi va qonuniylgi, shuningdek, transport vositalarining rang-grafik bo‘yash sxemalarining texnik reglomentlari yoki standartlar talablariga muvofiqligi;

gaz yoqilg‘isida ishlash uchun qayta jixozlangan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazishda gaz ballonlarining foydalanish muddati, ishlab chiqarilgan yili, zavod raqami, gaz ballonlarni sinovdan o‘tkazish muddatlari, gaz ballonlarning anzomlarini belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirilishini ta’minlasin.

6. Transport vositalarining majburiy texnik ko‘rigini DYHXX organlarin hamda tadbirkorlik subyektlari – yuridik shaxslar tomonidan Nizomga muvofiq o‘tkaziladi hamda tegishli yig‘im undiriladi.

- transport vozsitalarining texnik holati va uskunalarining muvofiqligini baholash uchun DYHXX organlari tomonidan korxona va tashkilotlarning texnika bazalari, shuningdek, xususiy texnik xizmat ko‘rsatish stansiyalari shartnoma asosida jalb etilishi mumkin.

- Jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan M1 toifadagi transport vositalari faqat tadbirkorlik subyektlari tomonidan texnik ko‘rikdan o‘tkaziladi.

7. Tumandagi barcha transport vositalari egalari bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarga transport vositalarini texnik pasporti bilan birgalikda texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi, ularning texnik jihatdan sozligini va o‘z vaqtida jadval asosida ko‘rikdan o‘tkazish majburiyati yuklatilsin.

8.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 125-sonli qarorining 3-bandiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligining ichki va soqchilik qo‘shinlari, Davlat xavfsizlik xizmatining harbiy bo‘linmalari transport vositalari ko‘rsatib o‘tilgan idoralar tomonidan

belgilangan tartibda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi inobatga olinsin.

9. Qo‘shrabot tumani hokimining 2022-yil 15-dekabrdagi 317-7-97-Q/22-sonli qarori 2024-yil 1-yanvardan boshlab o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari I.Xoliqulov zimmasiga yuklatilsin.

11. Mazkur qaror rasman e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kirsin.

Tuman hokimi v.v.b **I.Sayfiddinov**

Qo‘shrabot tuman hokimining
2024-yil 4-yanvardagi
2-7-97-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Tumanda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha tuman komissiyasi
T A R K I B I
Komissiya raisi:

X.Aliyev	Tuman ichki ishlar bo‘limi yo‘l-harakati xavfsizligi guruhi katta inspektori

Komissiya a’zolari:

Y.Murtozayev	Tuman mudofaa ishlari bo‘limi texnika bo‘yicha katta yordamchisi
S.Qo‘shboqov	Tuman Eologiya va atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarini bo‘limi boshlig‘i
S.Davirov *Lavozimiga ko‘ra*	Tuman Vatanparvar o‘quv sport-texnika O‘zbekiston Avtomobil transport agentligi Samarqand viloyati boshqarmasi shaharlar va tumanlarda avtomobil tekshiruvlarini muvofiqlashtirish sho‘basi yetakchi inspektori
Sh.Shaxadinov	Tuman “Pangat yo‘lovchi trans” MChJ raisi

Komissiya kotibi:

Lavozimiga ko‘ra	Tuman Ichki ishlar bo‘limi yo‘l-harakati xavfsizligi guruhi inspektori

Qo‘shrabot tuman hokimining
2024-yil 4-yanvardagi
2-7-97-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Tumanda avtomototransport vositalari va ularga tirkamalarning 2024-yilgi majburiy texnik ko‘rigini o‘tkazish jadvali

JADVALI

T/r	Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar nomi	Avto soni	Texnik ko‘rikdan o‘tkazish sanasi		Texnik ko‘rik o‘tkaziladigan manzil
			Birinchi marta	Ikkinchi marta	
1	Tuman hokimligi	8	1.03.2024 y		o‘z manzili
2	Tuman moliya bo‘limi	1	2.03.2024 y		o‘z manzili
3	Tuman sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati bo‘limi	2	2.03.2024 y		o‘z manzili
4	Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	5	2.03.2024 y	14.09.2023 y	o‘z manzili
5	Tuman Jo‘sh 1-son kasb-hunar maktabi	3	3.03.2024 y		o‘z manzili
6	Tuman Zarmitan 2-son kasb-hunar maktabi	3	3.03.2024 y		o‘z manzili
7	8-sonli alohida harbiylashtirilgan kon qutqaruv bo‘limi	9	3.03.2024 y		o‘z manzili
8	Vatanparvar o‘quv sport-texnika klubi	9	6.03.2024 y		o‘z manzili
9	Tuman davlat soliq inspeksiyasi	1	6.03.2024 y		o‘z manzili
10	Tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi	4	6.03.2024 y		o‘z manzili
11	Tuman tibbiyot birlashmasi	7	7.03.2024 y		o‘z manzili
12	“Toza hudud” MChJ	6	7.03.2024 y		o‘z manzili
13	“Pangat yo‘lovchi trans” MChJ	7	9.03.2024 y	15.09.2023 y	o‘z manzili
14	“Jo‘sh kayumars” MChJ	2	9.03.2024 y	14.09.2023 y	o‘z manzili
15	Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	4	9.03.2024 y		o‘z manzili
16	Pochta aloqa tarmog‘i tuman bo‘limi	1	10.03.2024 y		o‘z manzili
17	Tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	2	10.03.2024 y		o‘z manzili
18	“Bo‘ston” XSIChTF	8	13.03.2024 y		o‘z manzili
19	“Mramor” XK	1	14.03.2024 y		o‘z manzili

20	“Zarband” KK	4	14.03.2024 y		o‘z manzili
21	“Said” MChJ	2	15.03.2024 y		o‘z manzili
22	“Qo‘shrabot tomorqa xizmati” MChJ	2	15.03.2024 y		o‘z manzili
23	“Daminov Berdiyor” XSIChTF	1	16.03.2024 y		o‘z manzili
24	“Sartoqchi mramor” XSIChTF	2	16.03.2024 y		o‘z manzili
25	“INTEGRAL PLUS” XK	1	17.03.2024 y		o‘z manzili
26	“SHAGOL SOY BIZNES” MChJ	10	17.03.2024 y	21.09.2022 y	o‘z manzili
27	“ELTRAGON PLAST” XK	4	20.03.2024 y		o‘z manzili
28	“PLATINA SERVIS” MChJ	3	20.03.2024 y		o‘z manzili
29	“RABOT BAXT” MChJ	3	23.03.2024 y		o‘z manzili
30	“KAMAR GAVHARI” fermer xo‘jaligi	1	23.03.2024 y		o‘z manzili
31	“Toshbuloq jilvasi” fermer xo‘jaligi	2	23.03.2024 y		o‘z manzili
32	“Boli ota” fermer xo‘jaligi	1	24.03.2024 y		o‘z manzili
33	“Bek savdo omad baraka” MChJ	1	24.03.2024 y		o‘z manzili
34	“Salimova Oysifat Tolliboevna ” x/sh	2	27.03.2024 y		o‘z manzili
35	“Feruza” MChJ	1	27.03.2024 y		o‘z manzili
36	“PRIDF IMPEX” MChJ	1	28.03.2024 y		o‘z manzili
37	“Anvarjon Xamraev” MChJ	2	28.03.2024 y		o‘z manzili
38	“Qo‘shrabot qurilish ta’mir” MChJ	2	28.03.2024 y		o‘z manzili
39	“Qo‘shrabot g‘isht ta’mir” XK	3	29.03.2024 y		o‘z manzili
40	AT Xalq banki tuman filiali	1	29.03.2024 y		o‘z manzili

41	“Hudud gaz Samarqand” gaz ta’minoti filiali “Qo‘shrabottumangaz” gaz ta’minoti bo‘limi	3	30.03.2024 y		o‘z manzili
42	Tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi	1	31.03.2024 y		o‘z manzili
43	“Mine Construction Alliance” MChJ	2	03.04.2024 y	27.09.2023 y	o‘z manzili
44	“Fozilmon” ixtisoslashtirilgan davlat o‘rmon xujaligi	2	04.04.2024 y		o‘z manzili
45	“Zarmitan” dala geologiya qidiruv ekspeditsiyasi	25	5.04. 2024 y	22.09.2023 y	o‘z manzili
46	Navoiy kon metallurgiya kombinati janubiy kon boshqarmasi 10-avtokorxona	138	6-7.04.2024 y	25.09.2023 y	o‘z manzili

Izoh: *jismoniy shaxslarga tegishli transport vositalarining texnik ko‘rigi DYHXX diagnostika stansiyasida o‘tkaziladi.*